

KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARNING FAUNONIMLARDA QO‘LLANISHINING O‘ZIGA XOS SEMANTIK XUSUSIYATLARI

O‘z.D.J.T.U Ispan tili amaliy fanlar kafedrası
dotsent v.b Dushayeva U.Yu

Komparativ birliklardagi obrazlar o‘zlarining kelib chiqishlari jihatidan juda rang-barang, ular turli davrlarga borib taqaladi va insonni o‘rab turgan voqelikni, hayotning turli sohalarini, turmushni hamda xalq madaniyatini aks ettiradi. O‘zining ko‘p asrlik tarixiy davrida ispan xalqi komparativ birliklarning mazmunga to‘la va obrazli ravshanlikning boy gammasini yaratdi, bunga ispan tili sohibining obrazli tasavvuri boyligi va ispanlarning istioralarni ishlatishga bo‘lgan moyilligi imkon yaratadi.

Komparativ birliklarda hayvonot olamidan olingan obrazlar juda keng ifodalangan. Bu birliklar hayvonga an’anaviy tarzda beriladigan belgilar, xususiyatlar asosida yaratilgan. Ko‘pincha bu hayvonlar nomlari birliklar sohasidan tashqarida metaforik qo‘llanilishi mumkin. Bir qarashda, ispan tilining obrazlari hayvonot olamidan olingan komparativ birliklarida asosan rus tilidagi obrazlar ishlatilayotganga o‘xshaydi. Haqiqatan ham, komparativ birliklar faunonimlar deb ataluvchi guruhda mos kelishlarni kuzatish mumkin, chunki o‘xshatishlar ba’zida hayvonga xos bo‘lgan haqiqiy belgi asosida hosil qilinadi.

Qo‘zichoqning itoatkorligi va zorlanmasligi, sug‘urning uyquchiligi, sherning kuchi va botirligi, yo‘lbarsning vahshiyliги, itning sodiqligi, tulkinning ayyorligi va boshqa xususiyatlar manso como un cordero – qo‘zichoqdek itoatkor, dormir como un lirón – sug‘urdek dong qotib uxlamoq, valiente como un león – sherdek botir, fiel como un perro – it kabi vafodor va h.k. birliklarni misol qilishimiz mumkin. Biroq, juda ko‘p hollarda u yoki bu til sohibi hayvonning u yoki bu xususiyatlarini payqab qoladi va ularni ajratib ko‘rsatadi, bular boshqa til sohibining e’tiboridan chetda qoladi yoki alohida ruhiy zehnilik sababli hayvonot olami vakiliga qandaydir boshqa belgilarni qo‘shib qo‘yadi. Misol uchun, o‘zbek tilida echki obrazi yengiltaklik va mulohazasizlikning ramziy ifodasi bo‘lib xizmat qiladi. Ispan tili sohibi komparativ birliklarda ushbu obrazning o‘zini qo‘llaydi, ammo boshqa sifatlar bilan ataydi: más serio que una cabra, más loco que una cabra. Nima uchun echkiga ikkita butunlay qarama-qarshi xususiyatlar – “jiddiylik” va “jinnilik” qo‘shib yozilishini tushuntirish qiyindir.

Oppoqlik xususiyatini xarakterlash uchun ispaniyalik oqsichqonning (armiño) obrazini ishlatadi, bo‘ri og‘iz (boca de lobo) qorong‘u tunni, umuman, qorong‘ulikni ramzlaydi, maymun uyatchanlikning, tortinchoqlikning (más corrido que una mona), toshbaqa (tener más conchas que un galapago) – ayyorlik va ziyraklikning, ustritsa

(ostra) – zerikishning timsoli hisoblanadi. X.Kasares mushuk, bo‘ri, it va ot kabi hayvonlar ispan metaforasiga kira olishmadi, deb hisoblaydi. Ehtimol, muallif faqat metaforani nazarda tutgan, chunki komparativ birliklarda ushbu hayvonlarning obrazlari har qalay uchrab turadi, lekin ularning salmog‘i uncha katta emas: morir como un perro, tener siete vidas como el gato, más envidioso que un gato, más hambriento que un lobo, más noble que un caballo.

Qiyoslash obrazi sifatida faunonimlar qo‘llanilgan komparativ birliklar orasida quyidagilar eng ko‘p uchraydi: trabajar como un burro, morir como un perro, terco como una mula, más loco que una cabra, tener más conchas que un galápago, correr como un gamo, aburrirse como una ostra, dormir como las liebres, trabajar como una bestia, dormir como un lirón, mansa como una cordera, valiente como un león, vivir como una rata, morir como un pajarito, comer como un pajarito, hablar como cotorras, listo como un lince, oscuro como boca de lobo, reirse como un conejo, pobre como las ratas.

Ko‘plab komparativ birliklarning obrazlari tabiat hodisalarini, ofatlarning nomlarini, zamon (vaqt) tushunchalarini, minerallarni aks ettiradi: libre como el aire, inmenso como el mar, oscuro como la noche, veloz como un rayo, azul como el cielo, rápido como un relámpago, hermoso como un sol, ligero como el viento, llegar como el agua, ir como una centella, disiparse como el humo, entrar como el huracan, pasar como las nubes, pasar como un torbellino, brillar como el oro, brillar como la plata, pesar como plomo, callar como una piedra, dormir como una piedra, tiznar como el carbón, callar como la tierra, más firme que una roca, duro como una piedra, más firme que una peña, fuerte como el acero, grande como una montaña, negro como una cueva, duro como un peñasco, etc.

V.Baynxauerning fikriga ko‘ra, ispaniyalikning mubolag‘aga ishqibozligi, reallik va cheklovlarni esdan chiqarishga majbur qilib, unga “g‘ayriinsoniy” o‘lchamlar bag‘ishlaydigan eng katta huzur-halovat bilan izohlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Касаpec X. Введение в современную лексикографию. <https://openlibrary.org/books/OL19996166M/Stilstudien>.
2. Pottier, B. Linguística moderna y filología hispanica. Madrid. <https://www.bookdepository.com/Linguistica-Moderna-y-Filologia-Hispanica-Bernard-Pottier/9788424903275>
3. Moline E. Belle comme un Coeur./ Belle comme sa soeur. Pour une description unifiée des comparatives en comme./ L’information grammaticale, 111. – Louvain, Peeters, 2006. – P. 14–20.